

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF ANIMAL AND PLANT NAMES IN THE PAREMIOLOGY OF COGNATE LANGUAGES (A CASE STUDY OF UZBEK AND GERMAN)****Malika Sultonovna Rakhimova***Doctoral Researcher**Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni**Science ID: MXR-0726-0218**Urgench, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: paremiology, linguocultural studies, zoonyms, phytonyms, linguocultural studies, uzbek language, german language, proverbs and sayings, comparative analysis, national mentality, cultural values, ethnolinguistics, society.

Received: 27.07.26**Accepted:** 28.07.26**Published:** 29.07.26

Abstract: In this article, we have conducted a comparative analysis of the linguistic and cultural characteristics of animal and plant names found in the paremiology of the Uzbek and German languages, which are considered unrelated languages. The main goal of this study is to determine the semantic content, national-cultural connotations and place of zoonyms and phytonyms in proverbs and sayings used in these languages in reflecting the worldview of the people. In the process of analysis, we studied the values, moral standards, lifestyles and historical-cultural experiences formed through the images of animals and plants. We found that in Uzbek paremiology, units such as camel, horse, wolf, sheep, plane tree, mulberry express the ideas of the people related to the nomadic and agricultural culture. In German paremiological units, we observed that images such as dog, fox, horse, oak and grape express meanings related to hard work, discipline and practical thinking. The results of the study show that zoonyms and phytonyms not only reflect the lexical richness of the language, but also are the main linguocultural tool that reflects the mentality, national identity and cultural values of the people. This research serves to develop intercultural dialogue and enrich research in the field of linguocultural studies.

NOKARDOSH TILLAR PAREMIOLOGIYASIDA HAYVON VA O'SIMLIK NOMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (O'ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA)

Malika Sultonovna Raximova

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Ilmiy identifikatsiya raqami: MXR-0726-0218

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: paremiologiya, lingvomadaniyat, zoonim, fitonim, nokardosh tillar, o'zbek tili, nemis tili, maqol va matallar, qiyosiy tahlil, milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar, etnolingvistika, jamiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada biz nokardosh tillar hisoblangan o'zbek va nemis tillari paremiologiyasida uchraydigan hayvon va o'simlik nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qildik. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur tillarda qo'llanadigan maqol hamda matallarda zoonim hamda fitonimlarning semantik mazmuni, milliy-madaniy konnotatsiyalari va xalq dunyoqarashini aks ettirishdagi o'rnini aniqlashdan iborat hisoblanadi. Tahlil jarayonida biz hayvon va o'simlik obrazlari orqali shakllangan qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, turmush tarzi hamda tarixiy-madaniy tajribalar o'rgandik. O'zbek paremiologiyasida tuya, ot, bo'ri, qo'y, chinor, tut kabi birliklar xalqning ko'chmanchi va dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq tasavvurlarini ifodalashi aniqladik. Nemis tilidagi paremiologik birliklarda esa it, tulki, ot, eman va uzum kabi obrazlar mehnatsevarlik, tartib-intizom hamda amaliy tafakkur bilan bog'liq ma'nolarni ifodalashini kuzatdik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, zoonim va fitonimlar nafaqat tilning leksik boyligini namoyon etadi, balki xalqning mentaliteti, milliy o'ziga xosligi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi asosiy lingvomadaniy vosita hisoblanadi. Ushbu izlanishda nokardosh tillar paremiologiyasini qiyosiy o'rganish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni boyitishga xizmat qiladi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ ЖИВОТНЫХ И РАСТЕНИЙ В ПАРЕМИОЛОГИИ НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКОВ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО И НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКОВ)

Малика Султоновна Рахимова

Базовый докторант Ургенчского государственного университета имени

Абу Райхана Беруни

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: паремиология, лингвокультурология, зоонимы, фитонимы, лингвокультурология, узбекский язык, немецкий язык, пословицы и поговорки, сравнительный анализ, национальный менталитет, культурные ценности, этнолингвистика, общество.

Аннотация: В данной статье проведен сравнительный анализ лингвистических и культурных характеристик названий животных и растений, встречающихся в паремиологии узбекского и немецкого языков, которые считаются неродственными. Главная цель исследования – определить семантическое содержание, национально-культурные коннотации и место зоонимов и фитонимов в пословицах и поговорках, используемых в этих языках, в отражении мировоззрения людей. В процессе анализа изучались ценности, моральные нормы, образ жизни и историко-культурный опыт, сформированные посредством образов животных и растений. Было установлено, что в узбекской паремиологии такие единицы, как верблюд, лошадь, волк, овца, платан, шелковица, выражают представления людей, связанные с кочевой и земледельческой культурой. В немецкой паремиологии наблюдалось, что такие единицы, как собака, лиса, лошадь, дуб и виноград, выражают значения, связанные с трудолюбием, дисциплиной и практическим мышлением. Результаты исследования показывают, что зоонимы и фитонимы не только отражают лексическое богатство языка, но и являются основным лингвокультурным инструментом, отражающим менталитет, национальную идентичность и культурные ценности народа. Данное исследование способствует развитию межкультурного диалога и обогащает исследования в области лингвокультурологии.

Kirish. Nokardosh tillar — ya'ni kelib chiqishi, tipologik tuzilishi va til oilasiga mansubligi jihatidan farqlanuvchi tillar — paremiologiyasini qiyosiy o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga egadir. O'zbek tili turkiy til oilasiga, agglyutinatив tuzilishga ega bo'lsa, nemis tili german til guruhiga, fleksiya-analitik tuzilishga mansub sanaladi. Shunga qaramay, ikkala xalq paremiologiyasida ham hayvon va o'simlik obrazlarining keng qo'llanilishi umuminsoniy kognitiv


jarayonlarning mavjudligidan dalolat beradi, biroq bu obrazlarning milliy-madaniy talqini sezilarli farqlarga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek paremiologiyasiga oid tadqiqotlar orasida S. Karimovning “O‘zbek paremiologiyasi: nazariya va amaliyot” (2018) asari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘zbek xalq maqollarining semantik va pragmatik jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning “O‘zbek xalq maqollari” (2013) to‘plami tadqiqot uchun muhim manba vazifasini bajaradi[3; 224].

Lingvomadaniy yondashuvning nazariy asoslari R. Rasulovning “Lingvokulturologiya asoslari” (2015) va D. Xudoyberganovanning “O‘zbek tilida matn lingvokulturologiyasi” (2013) kabi ilmiy asarlarida yoritilgan[6; 192]. Nemis tilidagi paremiologik birliklarni o‘rganishda L. Röhrichning “Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten” (1991) va “Duden Redewendungen” (2013) lug‘atlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur manbalar zoonim va fitonimlarning o‘zbek hamda nemis xalqlari madaniyatidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi[5; 300].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda biz quyidagi metodlardan foydalanildi: qiyosiy-tipologik metod — ikki til materialini o‘zaro solishtirish orqali umumiy hamda farqli xususiyatlarni aniqlash uchun; komponent tahlili metodi — maqol tarkibidagi zoonim va fitonim leksemalarining semantik strukturasi ochish uchun; lingvomadaniyatshunoslik metodi — obrazlarning milliy-madaniy konnotatsiyasini tavsiflash uchun; miqdoriy-statistik metod — tanlangan birliklarni chastota bo‘yicha guruhlash va foizli nisbatlarni hisoblash uchun. Ekvivalentlik darajasini aniqlashda uch bosqichli tasnif qo‘llanildi: to‘liq ekvivalent (obraz va ma’no bir xil), qisman ekvivalent (ma’no bir xil, obraz qisman farqli yoki aksincha) va bezekvivalent (milliy-o‘ziga xos, muqobili boshqa tilda mavjud emas) birliklardir.

Natijalar. Zoonim komponentli maqollarning eng mahsuldor guruhini it, ot, bo‘ri, tulki va eshak obrazlari tashkil etadi. Ushbu obrazlarning nisbiy chastotasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



Diagrammadan ko‘rinadiki, "it" obrazi ikkala tilda ham eng yuqori chastotaga ega (o‘zbek tilida 22,4%, nemis tilida 24,1%), biroq uning konnotativ yuki farqlanadi: o‘zbek maqollarida it ko‘pincha sodiqlik yoki beparvo shovqin ramzi sifatida, nemis maqollarida esa ko‘proq ochko‘zlik va vafodorlik dixotomiyasida namoyon bo‘ladi. "Ot" obrazi o‘zbek paremiologiyasida (18,7%) nemis tiliga (9,6%) qaraganda ancha yuqori mahsuldorlikka ega, bu ko‘chmanchi-chorvachilik va otchilik an‘analarining o‘zbek xalqi turmush tarzida chuqur ildiz otganligi bilan bog‘liq. Aksincha, "mushuk" obrazi nemis maqollarida (14,8%) o‘zbek tiliga (9,3%) nisbatan faolroq qo‘llanadi, bu Yevropa madaniyatida mushukka nisbatan uy hayvoni sifatidagi yaqinroq munosabat bilan izohlanishi mumkin.

Zoonim va fitonim komponentli maqollarning qiyosiy tahlili natijalari 2- va 3-jadvallarda namunaviy misollar asosida keltirilgan.

1-rasm.

O‘zbek va nemis tillari maqollarida zoonimlarning qiyosiy chastotasi

№	O‘zbekcha maqol	Nemischa muqobili	Zoonim va uning ramziy ma’nosi	Lingvomadaniy izoh
1	It hurar, karvon o‘tar	Hunde bellen, die Karawane zieht weiter	it — beparvolik, chidamlilik ramzi	Ikkala tilda ham it obrazi salbiy shovqin, maqsadga sodiqlik ziddiyatida qo‘llanadi
2	Bo‘rining ishi — qo‘y yemoq	Der Wolf frisst auch die gezählten Schafe	bo‘ri — tabiiy tajovuzkorlik, o‘zgarmas xarakter	Bo‘ri obrazi ikkala madaniyatda ham tabiat qonuniyati va o‘zgarmas illatga ishora sifatida barqaror

№	O'zbekcha maqol	Nemischa muqobili	Zoonim va uning ramziy ma'nosi	Lingvomadaniy izoh
3	Ot — yigitning qanoti	Das Pferd ist der Stolz des Reiters	ot — kuch, erkinlik, sadoqat ramzi	O'zbek lingvomadaniyatida ot ko'chmanchi-dehqonchilik turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijobiy konnotatsiya kuchliroq
4	Tulki qancha aytgan bo'lsa ham, terisidan chiqolmaydi	Der Fuchs ändert wohl den Balg, doch nicht den Schalk	tulki — ayyorlik, hiylagarlik ramzi	Tulki obrazi germaniyalik va turkiy xalqlar og'zaki ijodida deyarli bir xil semantik yukni tashiydi, bu universal arxetipni ko'rsatadi

3-jadval.

Fitonim komponentli maqollarning qiyosiy-lingvomadaniy tahlili

№	O'zbekcha maqol	Nemischa muqobili	Fitonim va uning ramziy ma'nosi	Lingvomadaniy izoh
1	Olma tagida olma bitadi	Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm	olma — irsiyat, oila an'anasi ramzi	Ikkala tilda ham olma daraxti bilan mevasi orasidagi bog'liqlik avlodlar davomiyligiga metafora sifatida ishlatiladi — to'liq semantik mos kelish

№	O'zbekcha maqol	Nemischa muqobili	Fitonim va uning ramziy ma'nosi	Lingvomadaniy izoh
2	Bug'doyning boshog'i to'la bo'lsa, boshini egadi	Volle Ähren neigen sich zur Erde	bug'doy boshog'i — kamtarlik, ma'naviy yetuklik	Dehqonchilik madaniyatiga xos umumiy obraz; ikkala xalqda ham moddiy boylik va ma'naviy kamtarlik nisbati ifodalanadi
3	Gulni gul bilan tera bilar	Gleich und gleich gesellt sich gern	gul — go'zallik, tanlov, moslik ramzi	Nemis muqobilida o'simlik komponenti yo'qolgan (desemantizatsiya), bu tarjima jarayonida obraz almashinuvi hodisasini ko'rsatadi
4	Tikansiz gul bo'lmas	Keine Rose ohne Dornen	gul/atirgul — go'zallik va mashaqqat birligi	To'liq strukturaviy-semantik ekvivalentlik kuzatiladi; gul obrazi ikkala madaniyatda ham qiyinchiliksiz erishib bo'lmaydigan qadriyat sifatida talqin qilinadi

Muhokama. Zoonim komponentli maqollarda milliy-madaniy o'ziga xoslik fitonim komponentli maqollarga qaraganda ancha yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: hayvonlar bilan inson o'rtasidagi munosabat xo'jalik yuritish tarzi, geografik muhit va tarixiy-madaniy an'analarga bevosita bog'liq bo'lib, har bir xalq o'ziga xos hayvonlarni o'z kundalik hayotida boshqacha darajada iste'mol qiladi yoki ular bilan muloqotda bo'ladi.

Fitonim komponentlari borasida esa universallik tendensiyasi kuzatiladi. Olma, gul, bug'doy kabi obrazlar deyarli barcha dehqonchilik madaniyatiga ega xalqlar paremiologiyasida o'xshash ramziy yukni tashiydi — bu W. Miederning proverblarning kognitiv universalligi haqidagi qarashlariga mos keladi. Shu bilan birga, "Gulni gul bilan tera bilar" maqolining nemischa muqobilida ("Gleich und gleich gesellt sich gern") o'simlik komponentining butunlay yo'qolishi tarjima jarayonida obrazning desemantizatsiyalanishi hodisasini yaqqol namoyon etadi[7; 240] — bu tarjimashunoslar uchun muhim amaliy xulosa beradi: paremiologik birliklarni tarjima qilishda so'zma-so'z emas, balki funksional-semantik ekvivalent izlash zarur.

Xulosa. O‘zbek hamda nemis tillari paremiologiyasida hayvon hamda o‘simlik nomlari muhim lingvomadaniy birliklar ekanligini ko‘rsatdi. Zoonim va fitonimlar xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarini aks ettiradi. O‘zbek maqollarida chorchachilik va dehqonchilik madaniyatiga oid obrazlar ustunlik qilsa, nemis paremiologiyasida mehnatsevarlik, tartib va amaliy tafakkurni ifodalovchi obrazlar ko‘proq uchraydi. Shu bilan birga, ayrim hayvon va o‘simlik nomlari har ikki tilda o‘xshash ramziy ma’nolarda qo‘llanadi. Mazkur tadqiqot nokardosh tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga, paremiologik birliklarning milliy-madaniy mazmunini ochib berishga hamda qiyosiy tilshunoslik rivojiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Duden Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. – 4. Aufl. – Mannheim: Dudenverlag, 2013. – 928 S.
2. Karimov S. O‘zbek paremiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.
3. Rasulov R. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 224 b.
4. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Bd. 1–5. – Freiburg: Herder Verlag, 1991. – 1860 S.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: SamDCHTI nashri, 2006. – 300 b.
6. Xudoyberganova D. O‘zbek tilida matn lingvokulturologiyasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 192 b.
7. Yusupov U. Tilshunoslikda qiyosiy-tipologik tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2007. – 240 b.